



Toshkent davlat yuridik universiteti
huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro
standartlar bo'yicha professional o'qitish
markazi

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

YURISPRUDENSIYA

ILMIY VA
INNOVATSION
FAOLIYATNI
RIVOJLANTIRISH

2
0
2
5



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI YURIDIK
KADRLARNI XALQARO STANDARTLAR BO‘YICHA PROFESSIONAL
O‘QITISH MARKAZI**

YURISPRUDENSIYA
qayta tayyorlash va malaka oshirish
yo‘nalishi

**“ILMIY VA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH”
moduli bo‘yicha**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent -2025

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

I.Ergashev – TDYU Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, professor, y.f.d.

Taqrizchi:

X.Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, professor, y.f.d.

Ishchi o'quv dasturi Toshkent davlat yuridik universiteti Kengashida tavsiya qilingan (2025-yil _____dagi _____ - sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	6
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	15
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	23
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	93
V. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	145
VI. NAZORAT SAVOLLARI.....	149

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-14-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son, 2024-yil 6-maydagi "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida" PF-73-son farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-228-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4996-son qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 11-iyuldagi 415-son qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu dastur OTMlarda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan endi shug'ullanishni boshlagan yosh olimlar uchun mo'ljallangan. Hozirgi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarini dunyo mintaqalarida tanitish borasida olib borilayotgan eng dolzarb islohotlar talablari asosida tadqiqot ishlarini xalqaro formatda olib borish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, litsenziyalash va ilmiy nashrlarda chop etishga oid nazariy tushunchalar hamda uslubiy va amaliy tavsiyalarni o'zida mujassamlashtirgan.

Mazkur modul nufuzli xalqaro ilmiy nashrlar tomonidan talab etiladigan bir qator zamonaviy uslublar asosida natijalarni tartibli, ketma-ketlikdagi tahlil va bayon asosida ilmiy maqola shakliga keltirish, ularda tadqiqotlar samaradorligi va istiqbolini oshiruvchi muhim maxsus dasturlardan o'rinli foydalanish qoidalari va ko'rsatmalariga amal qilishda misol, namuna, dalil va izohlar kabilarga tayanilganligi tadqiqotchilar uchun tushunish va o'zlashtirishda yengilliklar taqdim etishi bilan ahamiyatlidir.

Modulning maqsad va vazifalari

Tinglovchilarda innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish ko'nikmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy empirik va nazariy metodlari, muayyan mavzu bo'yicha tadqiqot metodlarini shakllantirish va o'tkazish, tadqiqot natijalarini umumlashtirish, taqdim etish va baholash, ilmiy maqola, ma'ruza tezislari va monografiyalar tayyorlash, ilmiy faoliyatda odob-axloq masalalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion yondashuv va ilmiy tadqiqotlarning metodologik asoslarini o'zlashtirish, ilmiy g'oya, mavzu va gipoteza shakllantirish, reja va dastur tuzish hamda amalga oshirish, jahon oliy ta'limi rivojlanishidagi umumiy trendlar va strategik yo'nalishlar bo'yicha adabiyotlar sharhini tayyorlash, oliy ta'limning global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingi aniqlash metodikasi bilan tanishish, OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo'llarini o'rgatish, universitet 3.0 modelida professor - o'qituvchilar faoliyatini tashkil etish: «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini joriy etish, professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollari oshirish, natijalarni IMRAD uslubiyotida rasmiylashtirish uslubiyoti bilan tanishish, ishlanmalarga mualliflik guvohnomasini olish va natijalarni tijoratlashtirish modulning

maqsad va vazifalarini tashkil etadi.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- jahonda oliy ta'lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo'nalishlarni;
- zamonaviy ta'limning global trendlarini;
- inson kapitalining iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta'limning yoshdagi ahamiyatini;
- oliy ta'limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko'pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
- universitetlarning zamonaviy modellarini;
- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo'nalishlarini bilishi kerak.

Tinglovchi:

- OTMlarni reyting bo'yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o'tish uchun zarur bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o'tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o'zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potentsiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;

- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;

- innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo'llarini tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish;
- "Amaliyotchi professorlar" (PoP, Professor of Practice) modelini qo'llash;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish **kompetensiyalarini** egallashi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

"Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish" moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni qo'llash;

- amaliy mashg'ulotlarda oliy ta'limning zamonaviy global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingdagi o'rnini oshirish yo'llarini o'rganish;

- OTMlarda ta'lim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish asoslarini bilish;

- universitet 3.0 modelida professor - o'qituvchilar faoliyatini tashkil etish: "Amaliyotchi professorlar" (PoP, Professor of Practice) modeli asosida o'z faoliyatini tashkil etish;

- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish;

- ProQuest, ScienceDirect, Research Gate, Ednote, Scopus, WOS, Springer, Uzbekistan Research online, Google Academia) platformalarida asosiy kalit so'z va bog'liqliklarni aniqlash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish" moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi "Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar" moduli bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar jahondagi oliy ta'lim rivojlanish tendensiyalarini o'zlashtirish, ilmiy tadqiqotlar jarayonlarini xalqaro format asosida o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va yangi ilmiy natijalar olishga doir ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklamasi soatlari		
		Jami	Auditoriya o'quv yuklamasi	
			Nazariy	Amaliy
1.	Oliy ta'lim tizimida ilm-fan va ta'lim integratsiyasining zamonaviy tendensiyalari: xalqaro standartlar, milliy xususiyatlar va rivojlanish yo'nalishlari	2	2	
2.	Oliy ta'limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingi	4	2	2
3.	OTMLlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish	2		2
4.	Universitet 3.0 modelida professor - o'qituvchilar faoliyatini tashkil etish: "Amaliyotchi professorlar" (PoP, Professor of Practice) modeli	4	2	2
5.	Professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollari	2		2
6.	Oliy ta'lim muassasalarida "Yashil madaniyat"ni shakllantirish masalalari	2		2
	Jami	16	6	10

BAHOLASH MEZONI

Mazkur modul yuzasidan tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari nazorati belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Oliy ta'lim tizimida ilm-fan va ta'lim integratsiyasining

zamonaviy tendensiyalari: xalqaro standartlar, milliy xususiyatlar va rivojlanish yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi hamda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasida ilmfanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun va mohiyati. Jahonda oliy ta‘lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlar. Zamonaviy ta‘limning global trendlari. Ta‘limning globallasuvi, ta‘limning oxirgi o‘n yilliklarda butun dunyoda butun jahon iqtisodiy, siyosiy, madaniy integratsiyasi va unifikatsiyasi, kengaytirish jarayoni vazifasini bajarishi. Milliy ta‘lim tizimlarining davlat chegaralaridan chiqib, ta‘limning baynallminallasuvi va yagona ta‘lim makoni va ta‘lim xizmatlari bozorining shakllanishi. Ta‘limning ommaviylashuvi. Ta‘limning demokratlashuvi. Ta‘lim texnologiyasi. Inson kapitalining iqtisodiy o‘rinishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta‘limning yoshdagi ahamiyati. Uzluksiz va umr davomida ta‘lim olish. Talantlar uchun raqobatchilikning kuchayishi.

2-mavzu. Oliy ta‘limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingi

OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash. Xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlari. Jahon universitetlari reytingi. Universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish. Quacquarelli Symond (QS). Shanxay (Shanghai Jiao Tong University) universitetining oliy ta‘lim instituti (Institute of Higher Education) tomonidan dunyoning 500 ta yetakchi universitetlari - ARWU-500 ro‘yxati. Times Higher Education (THE) World University Ranking reytingi (ma‘ruza).

OTM reytingiga ta‘sir etuvchi omillar. Xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlari. Jahon universitetlari reytingi. Universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish. Quacquarelli Symond (QS). Shanxay (Shanghai Jiao Tong University) universitetining oliy ta‘lim instituti (Institute of Higher Education) tomonidan dunyoning 500 ta yetakchi universitetlari- ARWU-500 ro‘yxati. Times Higher Education (THE) World University Ranking reytingi (amaliy mashg‘ulot).

3-mavzu. OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish

Zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalari. Universitetlarning zamonaviy modellari va ularning transformatsiyasi. Universitetlarning klassik modellari. Universitetlarning zamonaviy modellari. Zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellari. Universitet 1.0dan universitet 3.0 modeliga o‘tish borasidagi muammolar, yechimlar va istiqbollar. Tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur

bo'ladigan o'zgarishlar. Tadbirkorlik universitetining asosiy vazifalari. Texnologiyalarni tijoratlashirish. Akademik tadbirkorlik = "universitet spin-offi". Akademik spin-off - universitetga taalluqli bo'lgan texnologiyalar asosida universitet xodimlari yoki bitiruvchilari tomonidan yaratiladigan sho'ba tashkilot. OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi start-aplarni shakllantirish va yaratish. Zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillari. Tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo'nalishlari. Universitet 4.0 kelajak universiteti sifatida. Kelajak universitetining asosiy konturlari.

4-mavzu. Universitet 3.0 modelida professor - o'qituvchilar faoliyatini tashkil etish: "Amaliyotchi professorlar" (PoP, Professor of Practice) modeli

Universitetlarning an'anaviy vazifalari (transformatsiya): o'quv faoliyati (yangi o'quv predmetlarining paydo bo'lish, ta'limning innovatsion usullarining rivojlanishi); ilmiy faoliyat (yangi bilimlarni generatsiyalash; individual va fanlararodan guruhli tadqiqotlarga o'tish). universitetlarning yangi ("uchinchi") vazifasi: universitetlar bo'linmalarida olingan ilmiy natijalarni tijoratlashirish (patentlashtirish, litsenziyalashtirish, kichik innovatsion kompaniyalarni yaratish va boshq.). Institutsional sohalar kesishuvidagi innovatsiya. Uch qirrali spiral modeli: innovatsiyalar, kelishuvlar va bilimlar makoni. "Amaliyotchi professorlar" (PoP, Professor of Practice) modeli. "Amaliyotchi professorlar" (PoP, Professor of Practice) modeli asosida universitetga yuqori texnologiyaga asoslangan firmalarni yaratgan xodimlarni jalb etish mexanizmi.

5-mavzu. Professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollari

ORCID, JEL Classification (Code) va Mendeley, Grammarly, CorelDraw dasturlaridan foydalanib dissertatsiya ishi paragraflari, ilmiy maqolalar va biznes hisobotlarni IMRAD formatida rasmiylashtirish. Scopus xalqaro ilmiy bazasida Sifat ko'rsatkichlari: Quartile (kvartil); CiteScore (yiliga sitatalash soni); SJR (SCImago Journal Rank); SNIP (Source Normalized Impact per Paper); kvartillar va protsentillar; Scopusdagi jurnallarni tekshirish; Scopus, Web of Science yoki yuqori impakt faktorli (IF) jurnallarda maqola chop etish. Ilmiy maqolalarning turlari (nazariy) ilmiy maqolalarning turlari (empirik/amaliy). Maqolaning tahririyatda o'tish protsedurasi. Mahsuldor va ko'p nashr ettiruvchi tadqiqotchi bo'lish yo'llari.

6-mavzu. Oliy ta'lim muassasalarida "Yashil madaniyat"ni shakllantirish masalalari

"Yashil madaniyat" tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi RQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar

samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mazmun va mohiyati. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida yashil iqtisodiyotga o'tish. Cheklangan resurslar sharoitida ulardan samarali foydalanishni takomillashtirish, atrof-muhit muhofazasi muammolari va ularni keskin kamaytirish. Har bir fuqaroning ekologik xavfsizligini ta'minlash. Yashil energetika va tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish orqali daromadlarni oshirish. Yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyati va o'rni.

O'QITISH SHAKLLARI

Quyidagi shakllarda ta'lim berish ko'zda tutilgan:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
- 2.O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentyabrdagi "Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 736-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.09.2018 y.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Тенденции развития высшего образования в мире и в России. Аналитический доклад-дайджест. -М., 2021. -198 с.

2. A.S.Zikriyoev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o'zingizni kashf qiling.-T.:Navro'z,2020. ISBN.9789943659285

3. Sh.Mustafakulov, A.Zikriyoev, D.Allanazarova, T.Khasanov, S.Khomidov. Explore Yourself Among World – Class Researchers. Grand OLEditor. Tashken,t 2019. ISBN: 8175 25766-0.

4. Ackoff, Russell L., Scientific Method, New York: John Wiley & Sons, 1962.

5. Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). The Modern Researcher, Harcourt, Brace Publication: New York.

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. <https://www.springer.com>

2. <https://www.elsevier.com>

3. <https://www.grammarly.com>

4. <https://www.scribbr.com>

5. <https://www.wiley.com>

6. <https://www.researchprospect.com>

7. <https://publishing.aip.org>

8. <https://www.mededpublish.org>

9. <https://mosiur.org>



INTREFAOL TA'LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“KWLH” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?.

“KWLH” metodi	
1. Nimalarni bilaman: -	2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak: -
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	4. Nimalarni bilib oldim:

--	--

“W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)		
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?		
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)		
When?	Qachon? (ishlatiladi)		
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)		

How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)		
------	--	--	--

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)

- Kuchli tomonlari

W – (weakness)

- zaif ,kuchsiz tomonlari

O – (opportunity)

- imkoniyatlar

T – (threat)

- xavflar

SWOT -таҳлили

Strengths	Weakness
Opportunities	Threats

- S-кучли томони
- W- кучсиз томони

- O- имконият
- T- тўсиқлар

Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;


	✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish
--	---

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o’zlashtirish ko’rsatkichi va amaliy ko’nikmalarini tekshirishga yo’naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo’nalishlar (test, amaliy ko’nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo’yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg’ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o’rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg’ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o’z-o’zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o’qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o’quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo’shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



Тест

Муаммоли вазият

**Тушунча таҳлили
(симптом)**

Амалий вазифа

“SCAMPER” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod muammolarni bartaraf etish bo’yicha yangi innovatsion g’oyalarni ishlab chiqishga yo’naltirilgan. SCAMPER “tez yugurish” degan ma’noni anglatadi. SCAMPER tushunchasi kengaytmasi (7 ta)ning har biridan

7 qatordan va 3 ustundan iborat jadval yaratish talab etiladi.

SCAMPER



Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish

SCAMPER savollari	SCAMPER savollari (yangi g'oyani ishlab chiqish)	Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish
S	Nima bilan almashtirish mumkin?	
C	Nima bilan birlashtirish mumkin?	
A	Nimaga moslashtirish kerak?	
M	Qanday yaxshilash mumkin?	
P	Nimalarni o'zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi,	

	rang va boshqalar)	
E	Yana qanday holda qo'llash mumkin	
R	Nimani qayta tiklash mumkin?	

"Loyiha"

"Loyiha" metodi

Loyiha- tinglovchilarning muayyan muammoni yechishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishni ko'zda tutuvchi metoddir.





III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU:

"OLIY TA'LIM TIZIMIDA ILM-FAN INTEGRATSIYASINING ZAMONAVIY TENDENSIYALAR: XALQARO STANDARTLAR, MILLIY XUSUSIYATLAR VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI" (2 soat).

Reja:

- 1.1. O'qitish, ta'lim, fan va innovatsiya tushunchalari. O'qitish sifatidan – ta'lim sifatiga o'tish.**
- 1.2. Zamonaviy ta'limning global trendlari.**
- 1.3. Jahonning yetakchi universitetlari strategik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari**
- 1.4. O'zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish yo'lidagi muammolar va ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy yo'nalishlari.**

Tayanch tushunchalar: o'qitish, ta'lim, fan va innovatsiya tushunchalari, o'qitish sifatidan – ta'lim sifatiga o'tish, innovatsiya, zamonaviy ta'limning global trendlari, oliy ta'lim rivojlanishining tendensiyalari, universitet, tadbirkorlik universiteti, dunyo universitetlari reytingi, jahonning yetakchi universitetlari strategik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.

O'zbekiston Respublikasining ilm-fan va innovatsion faoliyatga doir qonunlari va Konsepsiyasining mazmuni, shuningdek, 2030-yilgacha ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni tushunish uchun raqamlar va jadvallar asosida ba'zi muhim tafsilotlarni keltirish mumkin. Ushbu qonunlar va konsepsiya ilm-fanning rivojlanishiga, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga va ilmiy faoliyatni modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarga qaratilgan huquqiy asoslarni belgilaydi. Qonunning asosiy maqsadlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ilm-fan sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;
- Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

➤ Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va ilmiy natijalarni amaliyotga joriy qilish.

"Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonun innovatsion faoliyatni tashkil etish va rag'batlantirishga yo'naltirilgan. U innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda ilm-fanning o'rni va uni iqtisodiyotga joriy qilishni nazarda tutadi. Asosiy tamoyillar:

- Innovatsion ekotizimni yaratish;
- Innovatsion faoliyat uchun zarur huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratish;
- Innovatsion mahsulotlarni yaratish va tijoratlashtirish.

O'zbekiston ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyasining maqsadi 2030-yilgacha yuqori samarali ilmiy-texnologik, innovatsion faoliyatni amalga oshirishni ta'minlashdir. Bu konsepsiya ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish va ilmiy-texnologik salohiyatni jahon miqyosida raqobatbardosh qilishni ko'zlaydi. Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari:

- Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni sanoatga qo'llash;
- Ilm-fan tizimini modernizatsiya qilish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash;
- Xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirish.

O'zbekiston ilm-fanini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida quyidagilarni keltirish mumkin:

O'zbekiston Respublikasi byudjetidan ilm-fan va innovatsiyalar sohasiga ajratilgan mablag'lar yildan yilga oshib bormoqda. 2020-yilda ilm-fanga ajratilgan mablag'lar umumiy byudjetning 0.5% ini tashkil etgan, 2023-yilda esa bu ko'rsatkich 1.1% ga yetgan.

O'zbekistonda ilm-fan sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlar soni doimiy ravishda o'sib bormoqda. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, ilmiy xodimlar soni 30,000 nafardan oshdi, buning 15,000 nafari professor-o'qituvchilar, 10,000 nafari ilmiy tadqiqotchilardir.

2020-yilda O'zbekistonda patentlar soni 500 dan oshgan, 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 2,000 dan yuqori bo'lgan. Bu ilmiy va innovatsion faoliyatning yanada rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning xalqaro ilmiy hamkorligi tobora kuchaymoqda. 2024-yilda O'zbekiston 50 dan ortiq davlat bilan ilmiy-texnologik hamkorlikni yo'lga qo'ygan, shuningdek, xalqaro ilmiy jurnallarda O'zbekiston olimlarining maqolalari soni 5,000 dan ortgan.

2030-yilgacha O'zbekistonda ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish uchun quyidagi asosiy strategiyalarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

Ilm-fan va innovatsiya sohasida davlat investitsiyalarini oshirish;

Ta'lim tizimini zamonaviy ilmiy-texnologik talablarga moslashtirish;

Xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish va ilmiy ta'limning sifatini oshirish.

O'zbekistonning ilm-fan va innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qonunlar va 2030-yilgacha bo'lgan konsepsiya, mamlakat ilmiy va texnologik salohiyatini oshirishga, iqtisodiyotga ilmiy yondoshuvlarni joriy etishga, hamda xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lishga qaratilgan muhim huquqiy va strategik asoslarni taqdim etadi.

Jahonda oliy ta'lim rivojlanish tendensiyalari va strategik yo'nalishlar zamon talablari bilan doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shu bois, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, global miqyosda raqobatbardoshlikni oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan turli trendlar mavjud. Ushbu tahliliy ma'lumotda umumiy trendlar va ularning strategik yo'nalishlarini raqamlar va jadvallar asosida ko'rib chiqamiz.

Oliy ta'lim tizimida jahon bo'ylab ko'plab tendensiyalar kuzatilmoqda. Quyidagi asosiy yo'nalishlar global miqyosda oliy ta'limni shakllantiruvchi omillardan hisoblanadi:

Dijital texnologiyalar va onlayn ta'lim tizimlari so'nggi yillarda o'sishga erishdi. Pandemiya davrida onlayn ta'limga bo'lgan talabning keskin ortgani, shuningdek, kelajakda ta'limning raqamli shakllari jadal rivojlanishini ko'rsatmoqda.

2023-yil holatiga ko'ra, global miqyosda 300 milliondan ortiq onlayn talaba mavjud edi.

Onlayn ta'lim bozorining hajmi 2025-yilgacha 350 milliard dollarni tashkil etishi kutilmoqda (Global Industry Analysts, 2023).

Dunyo bo‘ylab oliy ta’limda mobillik va talaba almashinuvi sezilarli darajada o‘ydi. Xalqaro ta’lim dasturlari va mobillik siyosatlari oliy ta’lim tizimlarida talabalarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi.

2023-yilda talaba almashinuvi orqali xalqaro miqyosda o‘qiyotgan talabalarning soni 5 milliondan oshdi (UNESCO, 2023).

Xalqaro universitetlar o‘rtasida hamkorlikning o‘shishiga ko‘ra, 2025-yilda 200 dan ortiq davlatda oliy ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi 30% ga oshishi kutilmoqda.

Oliy ta’limda ta’lim sifatini oshirish va dunyoviy standartlarga mos keladigan diplom va darajalarga ega bo‘lishga bo‘lgan talab oshmoqda. Shuningdek, ko‘plab universitetlar xalqaro akkreditatsiya olmoqda.

2022-yilda dunyo bo‘ylab oliy ta’lim muassasalarining 70% dan ortig‘i xalqaro akkreditatsiyaga ega bo‘ldi (QS World University Rankings, 2023).

Oliy ta’limning global rivojlanish strategiyalari va yo‘nalishlari quyidagi sohalarda jadal davom etmoqda:

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan 17 ta barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) doirasida oliy ta’lim tizimlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, SDG 4 (ta’limning sifatini oshirish) va SDG 9 (innovatsiyalar va infratuzilmani rivojlantirish) oliy ta’limning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi.

2023-yilda oliy ta’lim muassasalarining 80% dan ortig‘i barqaror rivojlanish maqsadlarini o‘z ta’lim dasturlariga integratsiya qildi (UNESCO, 2023).

Oliy ta’lim muassasalarining ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarga e’tiborini oshirish, shuningdek, jahon ilm-fanining rivojlanishiga hissa qo‘shish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish oliy ta’limda markaziy o‘rin tutmoqda.

2023-yilda dunyo bo‘ylab oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar uchun sarflangan mablag‘lar 500 milliard dollardan oshdi.

Innovatsiyalarni tijoratlashtirish bo‘yicha, 2023-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarining 40% dan ortig‘i innovatsion startaplarni yaratishga yordam berdi (OECD, 2023).

Ta’limda individual yondashuv va talaba markazli tizimning o’sishi oliy ta’lim tizimlarining asosiy yo’nalishiga aylanishi kutilmoqda. Bu talabalar uchun moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab oliy ta'lim muassasalarining 50% dan ortig'i individual yondashuvni o'z ta'lim dasturlariga qo'shgan (Times Higher Education, 2023).

Tendensiya/Yo’nalish	O’sish sur’ati (2020-2023)	Prognoz (2025)	Manba
Onlayn ta’lim bozorining hajmi	20% (yillik o’sish)	350 milliard dollar	Global Industry Analysts
Xalqaro talaba almashinuvi	5 million talabalar (2023)	7 million talabalar	UNESCO, 2023
Akkreditatsiyaga ega oliy ta’lim muassasalari	70% (2022)	75%	QS World University Rankings
Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ta’lim dasturlari	80% oliy ta’lim muassasalari	85%	UNESCO, 2023
Innovatsion startaplar yaratish (Oliy ta’lim)	40% universitetlar	50%	OECD, 2023

Jahon bo’yicha oliy ta’limda raqamli texnologiyalar, mobillik, ta’lim sifatini oshirish va innovatsiyalarni joriy etish kabi global tendensiyalar jadal rivojlanmoqda. Strategik yo’nalishlar va rivojlanish istiqbollari oliy ta’lim tizimlarining jahon bo’ylab samarali rivojlanishini ta’minlash uchun muhim omillardan biridir. Raqamlar asosida olib borilgan tahlil, ta’lim tizimining xalqaro miqyosda integratsiyasi va global barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashuvni ta’minlashni ko’rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimi so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Mamlakatning ta’lim siyosatidagi o‘zgarishlar va global tendensiyalarni inobatga olgan holda, oliy ta’limni modernizatsiya qilish va sifatni oshirishga katta e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining asosiy rivojlanish tendensiyalari

O‘zbekistonning oliy ta’lim tizimi raqamli texnologiyalarni joriy qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Pandemiya davrida onlayn ta’lim tizimi sezilarli darajada rivojlandi. 2020-yildan boshlab, ko‘plab universitetlar va oliy ta’lim muassasalari o‘z ta’lim dasturlarini onlayn platformalarga moslashtirdi.

2023-yilga kelib, O'zbekistonda oliy ta'limning 30% dan ortig'i onlayn shaklda o'qitiladi.

2022-yilda O'zbekistonda 250,000 dan ortiq talabalar onlayn ta'lim formatida tahsil oldi (O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi statistikalari).

Oliy ta'lim tizimida xalqaro hamkorlik va talaba almashinuvi so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Ko'plab oliy ta'lim muassasalari, jumladan Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, O'zbekiston Milliy Universiteti, xalqaro universitetlar bilan hamkorlik o'rnatmoqda.

2023-yilda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining 20% dan ortig'i xalqaro ta'lim dasturlarida ishtirok etdi.

2023-yilda 5,000 dan ortiq o'zbekistonlik talabalar chet elda o'qiyotgan bo'lib, ular asosan Evropa, MDH, Yaqin va uzoq Sharq mamlakatlari hamda AQShda tahsil olishmoqda.

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga javob beradigan diplomlar olish maqsadida ko'plab universitetlar xalqaro akkreditatsiya olishga intilmoqda.

2023-yilda O'zbekistonda 15 ta oliy ta'lim muassasasi xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan. Oliy ta'lim muassasalarining 40% dan ortig'i xalqaro ta'lim dasturlariga moslashtirilgan va yuqori sifatli o'qituvchilarni jalb etishga harakat qilmoqda. Oliy ta'lim tizimi barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqmoqda. Xalqaro miqyosda barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadi doirasida ta'lim tizimida muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Ilm-fanini rivojlantirish va innovatsiyalarni joriy qilishga qaratilgan strategik yo'nalishlar ilmiy va texnologik salohiyatni oshirishga xizmat qilmoqda.

2023-yilda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar uchun sarflangan mablag'lar 100 million dollardan oshdi.

Innovatsion startaplar yaratish bo'yicha oliy ta'lim muassasalari 500 dan ortiq yangi startap loyihalarini ishlab chiqildi

Oliy ta'lim tizimida talaba markazli ta'lim tizimi va individual yondashuvni joriy

qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Talabalar uchun moslashuvchan ta'lim dasturlari, shaxsiylashtirilgan o'qitish metodikasi joriy etilmoqda.

Raqamlar va jadvallar asosida tahlil

Tendensiya/Yo‘nalish	O‘sinh sur'ati (2020-2023)	Prognoz (2025)
Onlayn ta’limning rivojlanishi	30% ta’lim onlayn shaklda	50% ta’lim onlayn
Xalqaro talaba almashinuvi	5,000 talaba (2023)	7,000 talaba
Akkreditatsiyadan o‘tgan oliy ta’lim muassasalari	15 ta muassasa (2023)	20 ta muassasa
Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos ta’lim dasturlari	70% oliy ta’lim muassasalari	80% oliy ta’lim muassasalari
Innovatsion startaplar yaratish	500 startap (2023)	800 startap

Oliy ta'lim tizimi global tendensiyalarga mos ravishda raqamli texnologiyalarni joriy qilish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirgan. O'zbekiston oliy ta'lim tizimining kelajakdagi rivojlanish istiqbollari barqaror rivojlanish maqsadlari, innovatsiyalarni tijoratlashtirish va talaba markazli ta'limni yanada kengaytirishga yo'naltirilgan.

Zamonaviy ta'limning global trendlari, dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarining o'zgarishi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi va ijtimoiy-ehtiyojlarga mos ravishda rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Global ta'lim tizimi hozirgi kunda bir qator muhim yo'nalishlarda rivojlanmoqda. Quyida ba'zi asosiy global ta'lim trendlari ko'rib chiqamiz:

a. Raqamli ta'lim va onlayn o'qish

Raqamli texnologiyalar va internetning rivojlanishi ta'limning global trendlarini belgilaydi. Onlayn ta'lim, masofaviy o'qish va raqamli o'quv resurslari hozirgi kunda dunyo bo'yicha ta'lim tizimlarining ajralmas qismiga aylangan. Pandemiya davrida bu trend yanada kuchaygan va ko'plab universitetlar hamda ta'lim muassasalari onlayn ta'limni joriy etishdi.

Trendning mohiyati: O'quvchilarga onlayn kurslar, virtual sinflar, interaktiv o'quv platformalari orqali ta'lim olish imkoniyatini yaratish.

b. Shaxsiylashtirilgan ta'lim (Personalized learning)

Shaxsiylashtirilgan ta'lim – bu o'quvchilarning individual ehtiyojlariga, qobiliyatlariga va o'rganish uslublariga moslashtirilgan ta'limdir. Bu modelda, har bir o'quvchi o'ziga xos o'quv rejasini amalga oshirishi, o'z qiziqishlari va tezligi asosida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Trendning mohiyati: O'quvchilarga o'zgaruvchan ehtiyojlari asosida moslashtirilgan ta'lim jarayonini taqdim etish.

c. STEM ta'limining kuchayishi

STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics — fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta'limi hozirgi kunda dunyo bo'ylab eng muhim ta'lim yo'nalishlaridan biriga aylangan. STEM ta'limi o'quvchilarga yaratish va muammolarni hal qilishga asoslangan bilim va ko'nikmalarni o'rgatadi.

Trendning mohiyati: Innovatsion va texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun STEM yo'nalishidagi ta'limni kuchaytirish.

d. Umr bo'yi ta'lim (Lifelong learning)

Umr bo'yi ta'lim, odamlarning o'qish va o'rganish jarayonini umr bo'yi davom ettirishini anglatadi. Bu trend mehnat bozoridagi talablar o'zgarishi va texnologik inqiloblar sababli zarur bo'lib chiqdi. Ta'limning har bir bosqichida odamlar yangi ko'nikmalarni o'rganishlari kerak.

Trendning mohiyati: Odamlar o'z professional faoliyatlarini davom ettirish uchun doimiy ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak.

e. Inkluziv ta'lim

Inkluziv ta'lim har bir o'quvchining ehtiyojlarini hisobga olib, ularga teng imkoniyatlar yaratishni maqsad qiladi. Bu, nafaqat nogironligi bo'lgan o'quvchilar, balki ijtimoiy yoki madaniy jihatdan kam ta'minlangan guruhlardagi o'quvchilarga ham teng ta'lim olish imkonini beradi.

Trendning mohiyati: Ta'lim tizimini har bir kishi uchun ochiq va teng imkoniyatlarga ega qilish.

f. Ta'limda sun'iy intellekt (AI) va avtomatlashtirish

Sun'iy intellekt (AI) va avtomatlashtirish texnologiyalarining ta'lim tizimlariga integratsiyasi o'quv jarayonini samaraliroq qilishga yordam beradi. AI yordamida o'quvchilarning o'rganish jarayonini kuzatish, ularning muvaffaqiyatini tahlil qilish va ta'limni individuallashtirish mumkin.

Trendning mohiyati: O'quvchilarning muvaffaqiyatini aniqlash va ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish.

g. Yashil ta'lim (Green education)

Yashil ta'lim ekologiya, barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga e'tibor qaratadi. Bu trend ta'lim tizimlarida barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Trendning mohiyati: O'quvchilarga atrof-muhitni saqlash va barqaror rivojlanish haqida ma'lumot berish, ekologik mas'uliyatni o'rgatish.

h. Kreativlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalariga e'tibor

